

CHALLENGES AND SOLUTIONS OF UZBEKISTAN'S TRANSITION TO MARKET ECONOMY

Xoliyarova Muxlisabonu Abduraxmonovna

Tel: +998(90)075 02 15

Email: muxlisabonuxoliyarova@gmail.com

Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi

Tel:+998(91) 583 00 53

Email: nigorasayfullayeva05@gmail.com

Toshtemirova Muhlisa Davronbek qizi

Tel:+998(94) 202 06 03

Email: muxlisatoshtemirova@gmail.com

Shokirov Humoyiddin Baxriddin o'g'li

Tel: :+998(99) 944 38 53

Email: shokirovhumoyiddin@gmail.com

ANNOTATION

This article describes the system of market economy and its implications in detail. Show the shortcomings in the relationship between the seller and the buyer in the market .And a comprehensive solution has been found to these shortcomings.

Keywords: Market system, seller, buyer, market types,market economy, demand and supply, economic system, market infrastructure, entrepreneur,Monopoly, competition.

ANNOTATSIYA

Bu maqolada bozor iqtisodiyoti tizimi va uning unsurlari haqida atroflicha bayon etilgan. Bozorda sotuvchi va xaridor munosabatidagi kamchiliklar ko'rsatib o'tilgan.Va bu kamchiliklarga atroflicha yechim topilgan.

Kalit so'zlar: Bozor tizimi,sotuvchi,xaridor,bozor turlari, bozor iqtisodiyoti,talab va taklif, iqtisodiy tizim, bozor infratuzilmasi, tadbirkor, monopoliya,raqobat.

АННОТАЦИЯ


В этой статье подробно рассказывается о системе рыночной экономики и ее элементах. Указывая на недостатки в отношениях продавца и покупателя на рынке tilgan.Va эти недостатки нашли всестороннее решение.

Ключевые слова: Рыночная система, продавец,покупатель, виды рынков,рыночная экономика, спрос и предложение, экономическая система, рыночная инфраструктура, предприниматель,монополия, конкуренция.

INTRODUCTION

Bozor - oldi-sotdi jarayoni va bu jarayonda xaridor va sotuvchilar man-faatlari to`qnashadi. Bozorda tovar yoki har xil turdagi xizmatlar sotiladi va sotib olinadi yoki almashtiriladi. Bozor uchun asosiy rolni sotuvchi, xaridor ya'ni iste'molchi, tovar, pul yoki uni o'rnini bosuvchi narsalar bajaradi. Bozorda sotish uchun taklif qilingan barcha tovar va xizmatlar muomalada bo'ladi, hatto pulning o'zi ham bozorda muomala obyekti bo'lib hisoblanadi. Bozor - bozor iqtisodiyotining asosi, tayanch nuqtasidir. Bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tish davlatni rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Hozirgi sharoitda mamlakatimizning rivojlanishi bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tish jarayoniga bog`liq.

Bozor – jamiyatning ishlab chiqarish munosabatlari tizimida murakkab iqtisodiy tarkibdir. Chunki, u ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida markaziy o'rin tutadi. Bundan kelib chiqqan holda u jamiyat rivojlanishida faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy taraflarni qamrab oladi. Bozor tizimida asosiy vazifani bozor iqtisodiyoti bajaradi. Bozor iqtisodiyoti tovar-pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida harakatlanadigan iqtisoddir.



1-chizma. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari

Bozor iqtisodiyoti erkin tovar-pul munosabatlariga asoslanadi, uning negizida tovar va pulning turli shakllardagi harakati yotadi. Bu iqtisodiyotning amal qilish mexanizmi ko`plab asrlar davomida tarkib topib, shakllanib, hozirgi davrda madaniylashgan shaklni kasb etdi va ko`pgina mamlakatlarda hukmron iqtisodiy tizimga aylandi. Aynan bozor munosabatlarining

amal qilish darajasiga qarab kapitalizm, sotsializm kabi tuzumlarni ajratishgan. Xususiy mulkning kelib chiqishi va ijtimoiy mehnat taqsimoti bozor iqtisodiyotining kelib chiqishi va mavjud bo'lishi uchun umumiy sharoiti bo'lib hisoblanadi. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bozor iqtisodiyoti taraqqiyotining asosini tashkil etadi. Bozor munosabati mulkchilikning xilma-xilligini taqazo etadi. Chunki har qanday jamiyatning iqtisodiy tizimi mulkchilikdan boshlanadi

Bozor iqtisodiyotida tovar ishlab chiqaruvchi, tovarni sotar ekan, iqtisodiy manfaatni ro'yobga chiqaradi. Xaridor esa tovarni sotib olish bilan o'z manfaatlarini bildiradi, ya'ni bozor iqtisodiyotida ikkala taraf ham o'z manfaati uchun harakat qiladi. Bozor tizimida baho va raqobat muvofiqlashtiruvchi va tashkil etuvchi mexanizm hisoblanadi. Bozor tizimini qanday harakat qilishini tushunishimizdan avval biz unga oid ba'zi muammolar ko'zga tashlanadi.

Bozor muhitining rivojlanmaganligi va davlatning iqtisodiyotdagi haddan ziyod yuqori ishtiroki davlat ishtirokidagi alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samarasizligiga olib kelmoqda, bu esa "o'zaro kesishuvchi" subsidiyalash, soliq va bojxona imtiyozlari, preferensiyalar, imtiyozli kreditlar taqdim etish ko'rinishidagi davlat ko'magi orqali qoplanmoqda. Bozor tizimidagi asosiy muammolardan biribu, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish hisoblanadi. Monopoliyaga qisqacha, "biror bir korxonalar yoki firmaning yakka tartibda ish faoliyatini olib borish ya'ni bozorda shu faoliyat bilan shug'ullanadigan korxonalar yoki firmalarning kamligi yoki yo'q ekanligidir", -deb ta'rif bersak bo'ladi.

Monopoliya (yun. mono -tanho, poleo - sotaman) - iqtisodiyotning bir sohasida tanho hukmronlik bo'lib, shu bilan birga bozorni tashkil etish shaklidir. Bunday bozorlarda yagona sotuvchi o'z tovari bilan faoliyat ko'rsatadi, boshqa tarmoqlarda bunday tovarning o'rinbosari bo'lmaydi. Monopoliya ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi va shuning bilan yaratilgan mahsulotlar asosiy qismining ozchilik korxonalar, sohibkor shaxslar yoki davlat qo'lida to'planishi natijasida paydo bo'ladi. Monopoliya bo'lgan bozorda qaysi tovar ustidan monopol hokimlik amalga oshirilayotgan bo'lsa, o'sha tovar ishlab chiqarish sohasi rivojlanmay qoladi, buning natijasida bozorga o'sha turdagi tovarlarning yangi, zamonaviy, sifatli shakllari yaratilmaydi. Monopoll tovarlar sifatsiz, yaroqsiz bo'lib boraveradi, chunki o'sha tovar bilan raqobatlashadigan tovarlar bozorda mavjud emas. Raqobat bir tomondan yaxshi, ikkinchi tomondan yomon chunki korxonalar o'rtasidagi raqobat keyinchalik o'sha korxonalar ustidan bitta korxonaning yakka hukmronligiga olib keladi, ya'ni raqobat monopoliyani yuzaga keltiradi. Monopoliyani iqtisodiyotdagi hissasini kamaytirish uchun xususiylashtirish jarayonini izchil davom ettirish talab qilinadi.

2021-yil 1-yanvardan boshlab tajriba (sinov) tariqasida monopoliyaga qarshi komplayens tizimi joriy etiladigan davlat ishtirokidagi korxonalar royxati keltirilgan. Bular "Uzbekistan Airways", "Kvars", "Asakabank", "UzAuto motors", "O'ztransgaz", "Navoyiazot", "Issiqlik elektr stansiyalari", "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari", "Qizilqumsement" aksiyadorlik jamiyatlaridir. Mono-poliyaga qarshi komplayens tizimi - bu faoliyatning raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash, huquqbuzarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar va taomillar tizimi .

Raqobat - bozor iqtisodiyoti ishtirokchilarining o'z manfaatlarini yuzaga chiqarish uchun biri-biri bilan kurashi, ularning o'zaro bellashuvidir. Raqobatni hammaning hammaga qarshi

kurashi, deb bo'lmaydi. Raqobat manfaatlar tutashgan joyda yuz beradi, manfaatlar uyg'unlashgan joyda esa partnyorlik kelib chiqadi. Raqobat - bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir.

Bozor munosabatlari bozor infratuzilmasiz amal qilmaydi. Chunki, bozor infratuzilmasi bozor aloqalariga xizmat qiluvchi tashkilot va muassasalar tizimidir. Bu infrastukturaning samarali faoliyati mamlakatimizning bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tishini tezlashtiradi shu bilan birga iqtisodiy taraqqiyotga katta turtki bo'ladi. Bozor infrastrukturasida raqobat tufayli ishlab chiqarilayotgan tovarlar yanada samarali harakatda bo'lib qisqa davr ichida xaridor-iste'molchi qo'lga yetib boradi. Bozorda erkin raqobat muhitini shakllantirish sog'lom muhitni shakllantiradi. Shu sababli O'zbekistonda "Iqtisodiyotni erkinlashtirish haqiqiy raqobat muhitini yaratish bilan uzviy bog'liqdir", deb aytish mumkin. Iqtisodiyotni erkinlashtirish bir tomondan davlatga foyda keltirsa, bir tomondan ziyon ham keltiradi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish natijasida bozorda erkin raqobat muhiti shakllanadi. Bozorda sotuvchi va xaridor erkin harakat qilar ekan takomillashmagan bozor sharoitida ayrim kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Masalan, sotuvchilarning xaridorlarga bo'lgan muomala madaniyati, sotilayotgan tovarlarining sifatining pastligi yoki taklif qilinadigan tovarlarning sifat sertifikatlarsiz sotilishi.

Bu muammolarni hal qilish uchun, birinchidan, bozor va chakana savdo tashkiloti xodimlarining ma'naviy dunyosini kengaytirish. Muomala madaniyatini yuksak darajaga ko'tarishdir. Ikkinchidan tovar ishlab chiqaruvchi korxonalarini tovar ishlab chiqarish sifatini qat'iy nazorat tizimini joriy etish. Ya'ni tegishli nazorat qiluvchi tashkilotlar tomonidan muntazam ravishda tovar sifati ustidan doimiy monitoringni olib borish. Uchinchidan, ishlab chiqarilgan tovarlar belgilangan talablarga mos kelmasa, shu tovarlarni ishlab chiqarish va sotish sertifikatini bekor qilish. Sifatsiz, sertifikat talablariga muvofiq bo'lmagan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish iqtisodiyotimizga salbiy ta'siri sezilarli bo'ladi.

Hozirgi vaqtda ko'plab reklama ortiga yashiringan, ammo reklamada maqtanganichalik darajada bo'lmagan tovarlar ko'payib ketmoqda. Ammo bu tovarlar ularning chiroyli qadoqlangani va tashqi ko'rinishi sababli bozordan xaridorlar tomonidan sotib olinmoqda. Hozirgi vaqtda narxlar tufayli ham ko'plab muammolar kelib chiqmoda, bozorda tovar narxlarining erkin narxlarga o'tilganligi sababli sotuvchilarning tovarlarga o'zlariga foyda keltiradigan narxlarni qo'yib sotishi, xaridorlar o'rtasida norozichiliklarga olib kelmoqda. Ko'pgina bozorlardagi rastalar to'g'ri tartibda joylashtirilmagan. Bozordagi ko'pgina tovarlar gigiyenik-sanitar talablariga javob bermaydigan holatda iste'molchilarga sotilmoqda. Bozorlarimizda faqat sifatsiz, yaroqsiz tovar va mahsulotlar sotilmoqda degan fikrdan yiroqmiz. Xaridorlarga sifatli tovar va mahsulotlar ham ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar tomonidan taklif qilinmoqda. Faqatgina bu tovarlarni ajratib, tanlab, sifatligini so'hib olish xaridorga bog'liq.

Bozor iqtisodiyotidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun biz bozor infra-tuzilmasini rivojlantirishimiz kerak. Buning uchun biz xaridorlarga samarali xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yishimiz kerak. Shu bilan birgalikda bozordagi sotuv rastalarining tartib bilan joylashtirishimiz lozim. Sotuv do'konlari faoliyatini sanitariya-gigiyena talablariga rioya etishni nazoratga olish. Tovarlarini sotishda tabaqalashgan tizimga o'tish, ya'ni oziq-ovqat mahsulotlari dukonida faqat oziq - ovqat mahsulotlari va noziq-ovqat qukonlarida faqat shu

turdagi mahsulotlarni sotish ruxsat berish. Bunda supermarket va gipermarketlar bundan mustasno.

Bugungi kunda tovar va moliya bozorlarida davlat ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar ustun mavqega ega bo'lib qolmoqda, masalan, monopol tashkilotlarning 80 foizi davlat ulushiga ega yoki davlat ulushiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan nazorat qilinadi. Bozorga kirish uchun to'siqlarni bartaraf etishda, yirik korxonalar monopoliyasiga va "kartel" kelishuvlarga qarshi kurashishda, insofsiz raqobatning oldini olishda ta'sirchan mexanizmlar mavjud emas va amalda monopoliyaga qarshi organning qarorlar qabul qilishda mustaqilligi cheklangan. Raqobatni cheklashga yo'l qo'ymaslik bo'yicha preventiv va oldini oluvchi choralar tizimi shakllanmagan, yirik korxonalarni qo'shib yuborish va qo'shib olish bo'yicha bitimlar ustidan tahlil o'tkazish va samarali monopoliyaga qarshi nazoratni amalga oshirish mexanizmi o'rnatilmagan, savdolar jarayonida raqobatni cheklashni oldini olishning huquqiy mexanizmlari samarasizligicha qolmoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkin-ki bozor iqtisodiyoti tizimiga qisqa muddatda va samarali o'tish uchun mamlakatimizda bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirishimiz lozim. Ya'ni iqtisodiyotni erkinlashtirishni davom ettirish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish, raqobat muhitini takomillashtirish, mono-poliyani cheklash va bunda korxonalarda davlat hissasini kamaytirish, tovarlarning narxini asosli belgilash, bozor ishtirokchilarining muomala madaniyatini oshirish va tovarlar sertifikatitsiyasini yuqori darajaga ko'tarish. Bu tadbirlarni joriy etish mamlakatimiz rivojiga ulkan turtki bo'ladi. Birinchidan mamlakatimiz to'laonlik bozor tizimiga o'tib, ikkinchidan, iqtisodiy o'sish ta'minladi va buning natijasida aholining turmush faravonligi va darajasi oshib boradi. O'zbekistonda erkin bozor iqtisodiyotining tashkil etilishi yurtimizning iqtisodiy darajasini oshirishga va aholining turmush tarzini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Bozor iqtisodiyotining eng muhim sifatlaridan biri xususiy mulkchilikning ustuvorligini ta'minlab, yurtimizdakichik biznes va xususiy tadbirkorlikka katta e'tibor berilmoqda, bu esa o'z navbatida aholini ish bilan ta'minlash, ularning tadbirkorlik qobiliyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bundan keyin ham yurtimizda bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirishimiz, dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatorida biz ham o'z mahsulotlarimizni jahon bozoriga chiqarishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Z. Xudoyberdiyev . Iqtisodiy bilim asoslari .Toshkent "O'qituvchi " , 2000,35-bet
2. Karimov I., O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida, T., 1995
3. A.O'masov, A. Vahobov .Iqtisodiyot nazariyasi . T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014, 188-bet
4. I. Karimov . O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: "O'zbekiston" ,1999,34-bet
5. G'ulomov.S, Xalimov.R, Salimov.B., Mikroiqtisodiyot.T.:" SHARQ",2001.
6. Google.
7. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2020-y., 06/20/6019/1040-son
8. Abdullayev Y. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Toshkent – Mehnat. – 1997.
9. www.ziyouz.com kutubxonasi